

SALAVKIYLAR DAVLATI TARKIBIDA O'RTA OSIYO.

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.05.2026

Revised: 31.05.2026

Accepted: 01.06.2026

Ushbu maqolada Aleksandr Makedoniyalikning o'limidan so'ng u tuzgan davlatning parchalanishi, salavkiylar davlatining tashkil topishi, O'rta Osiyo davlatlarining salavkiylar tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati, Antiox I hukmronligi yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR:

*Aleksandr
Makedoniyalik,
Salavkiylar, Antiox I,
Baqtriya, Antiox II,
Oksiart, Sug'diyona.*

Miloddan avvalgi 323-yilda Aleksandr Makedoniyalik vafot etgandan so'ng uning davlati parchalana boshladi. Aleksandrning Roksanadan tug'ilgan o'g'li Aleksandr IVning hukmronligini hech kim tan olmadi. Chunki uning qonida yunon bo'lmagan xalqlarning qoni bor edi. Natijada sarkardalar o'rtasida mulk uchun kurash kuchayib, Aleksandr davlati o'rnida bir qancha davlatlar vujudga keldi. Jumladan, Salavkiylar davlati ular ichida eng yirigi edi. O'rta Osiyo bu davrda salavkiylar tarkibida ellinistik ta'sir ostida rivojlandi.

Aleksandr Bobilda vafot etgandan so'ng O'rta Osiyoda Salavkiylar davlati tashkil topishidan oldingi holat shunday edi. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng taxt vorisligiga davogar shaxs yo'q edi. Aleksandr vafotidan so'ng to'rt oy o'tgach Roksana o'g'il ko'radi. Unga Aleksandr deb ism qo'yadilar. Kichik Aleksandr Sharqiy viloyatlar hukmdori etib tayinlanadi. Hukmdor hali yosh bo'lganligi uchun bu viloyatlarga rahbarlik qilish qo'mondonlardan Perdikka va Antipatr zimmasiga yuklanadi. Ammo toj-taxt uchun olib borilgan kurash yosh go'dakni ham omon qoldirmaydi. Taxt uchun kurashda Aleksandr lashkarboshilarining birontasi ham yorqin g'alabaga erisha olmaydi. Buning ustiga Aleksandr vafotidan xabar topgan xalqlar ozodlik kurashiga o'tlanadilar.[2, b - 61].

Bu paytda yunonlar va makedonlar O'rta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamlarni tashkil etar edilar. Aleksandr vafotiga qadar Baqtriya va So'g'diyona satrapi asli makedonlardan bo'lgan Filipp edi. Undan keyin esa bu hududlar asli Kipr orolidan bo'lgan

yunon Stasanor qo'l ostiga o'tadi. Bu paytda ikki diadox — Evmen va Antigon Aleksandr davlatining asosiy yerlarini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurashayotgan edilar. Filippning katta qo'shinlari bilan yordam bergani tufayli Antigon Aleksandr davlatining katta qismiga hukmronlik o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, uning bu hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.[5, b - 128].

Baqtiryning bir qismida taxminan Shimolda Hisordan janubda Hindikush tog'larigacha bo'lgan hududlarni Aleksandrni qaynotasi Oksiart boshqargan. O'rta Osiyo satraplari nisbatan mustaqil boshqargan Sug'diyona va Baqtiryani chunki ular yunon yozuvi tushirilgan va Afina tasviri bor bo'lgan o'z tangalarini zarb qilganlar. Oksiart ham o'z oltin tangalarini zarb qilgan bu paytda.

Baqtriya va So'g'diyonadagi ushbu holat mil. avv. 306 yoki 305—303-yillargacha Salavk I ushbu hududlarni zabt qilib, o'zining katta davlati tarkibiga qo'shib olgungacha davom etadi. Bu davlat hududi, g'arbiy viloyatni istisno qilganda, Makedoniyalik Aleksandrning davlati hududi bilan deyarli teng bo'lgan edi.

Salavkning hokimyatga kelishi Aleksandrning eng yaqin hamrohlaridan biri bo'lib, u bilan birga Baqtriya va So'g'd yurishida ham ishtirok etgan edi. Salavk mil. avv. 312 yoki 311-yilda Bobilni qo'lga oladi. Bu yillar Salavkiylar saltanatining tashkil topgan davri hisoblanadi.

Salavk I ning siyosatida sharqiy satraplik, shu jumladan, O'rta Osiyo satrapliklari hal qiluvchi rol o'ynagan, chunki ular uning davlati mustahkamligiga xavf tug'dirardi. Bunga sabab, avvalo, u yerda ko'chmanchilarning birlashishidan tuzilgan kuchli harbiy tuzilmalar, Baqtriya va So'g'd amaldorlarining ajralib chiqishga moyilligi borligida edi, buni Aleksandrning harbiy yurishlarida shaxsan ishtirok etgan Salavk I yaxshi eslab qolgan bo'lsa kerak. Shuning uchun Sharqda mil. avv. 293 yoki 294-yillarda Salavk I ning onasi so'g'dlik bo'lgan o'g'li Antiox hukmron bo'lishi ham bejiz emas. Mil. avv. 280—261-yillarda Antiox I butun Salavkiylar davlatining hukmdori bo'lgan.[3, b - 150 - 151].

Antioxga Ikkidaryo oralig'i, Eron, Afg'oniston va Turon o'lkalari bo'ysungan. U Salavkiya shahrini poytaxti etib tanlagan. Antioxning sharqiy o'lkalarda yuritgan siyosatiga guvohlik beruvchi ma'lumotlar ko'p emas. Xususan, daxlarning Marg'iyonadagi Aleksandriya shahrini vayron etganlari, Antiox bu shaharni qayta tiklab, butun vohani uzunligi 250 km.ga yaqin yagona mudofaa devorlari bilan o'ragani ma'lum.

Taxminan, miloddan oldingi III asrning boshlarida ko'chmanchi saklar Sirdaryo bo'yidagi Aleksandriya Esxata shahrini vayron etganlar. Ularni bostirish uchun Antiox katta miqdordagi jazo qo'shinini Sug'dga yuboradi. U yo'l-yo'lakay qator shahar va qishloqlarni vayron etib, Sirdaryodan kechib o'tgan va saklarga katta talafot yetkazgan.[1, b - 80].

Salavkiylar davlatida ichki siyosiy boshqaruv masalalari ham ancha murakkab edi. Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha bo'lgan ko'plab viloyatlar mavjud bo'lib, bu holat ushbu kuchlarni yagona davlatga birlashtirib turishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu davlatning o'ziga

xos xususiyatlaridan biri u faqat harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan edi. Shuning uchun ham davlatning asosiy vazifalaridan biri qaram qilingan xalqlarni zo'ravonlik bilan ushlab turish yoki birlashtirib turish edi. Sharq xalqlari mahalliy zodagonlaridan bir qismi yoki ayrimlari boshqaruv tizimiga jalb etilgan bo'lsa-da, asosiy boshqaruvchilar makedonlar va yunonlardan iborat bo'lgan.

Salavkiylar sulolasida davlat boshlig'i podsho bo'lib, uning hokimiyati mutlaq edi. Podsho bir vaqtning o'zida fuqarolar ma'muriyati oliy boshlig'i, qo'shinlarning bosh qo'mondoni, oliy sudya va hatto bosh qonun chiqaruvchi vazifalarini bajargan. Manbalarning ma'lumot berishicha, sulola asoschisi Salavk I: "Podsho tomonidan buyurilgan barcha narsalar doimo adolatlidir", degan tamoyilga qat'iy amal qilgan. Salavkiylar sulolasida podsholar quyidagi ikki huquqiy asosga ega edilar: 1. Bosib olish huquqi. 2. Hokimiyatni otadan bolaga meros qoldirish huquqi. Ko'p hollarda salavkiylar podsholari ilohiylashtirilgan. Masalan, tangashunoslik ma'lumotlari Soter — Qutqaruvchi, Dikaos — Adolatparvar, Everget — Ezgulik qiluvchi kabi podsholar bo'lganligini tasdiqlaydi. Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma'muriy nazoratning susayib ketishiga olib kelgan.[6, b - 83].

Shimoliy Baqtriya va So'g'dda Salavk I va Antiox I hukmronlik qilganligiga shakshubha yo'q bo'lsa, unda Antiox II (mil. avv. 261–246) hukmronligi borasida to'liq ishonch mavjud emas. Aftidan, sak va daxlarning sa'y-harakati oqibatida salavkiylar So'g'diyonani qo'ldan boy berib, Shimoliy Baqtriya — Boysun tog'lari va Amudaryo bo'ylab himoya qo'rg'onlari (Qo'rg'onzol, Qopchig'aytepa, Darband dovonidagi alohida istehkomlar, Kampirtepa va shu kabilar)ni barpo etgan.[3, b - 152].

Markaziy Osiyoning salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon istilosi tufayli vayron etilgan iqtisodiy hayotni tiklash, baqtriyaliklar, sug'diylar, parfiyaliklar va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining salavkiylarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi. Miloddan avvalgi III asrning 60–50 yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlarida siyosiy vaziyat o'zgarib markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashdi. Miloddan avvalgi 250 yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya salavkiylardan ajralib chiqib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar.[4, b - 104].

Salavkiylar davlati hukmronligi davrida O'rta Osiyo hududlari ellinistik dunyoning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Salavk I Nikator va uning vorislari davrida bu yerda yunon-makedon madaniyati keng tarqalib, mahalliy an'analar bilan uyg'unlashdi. Natijada shaharlar rivojlandi, savdo aloqalari kengaydi va madaniy almashinuv kuchaydi. Biroq uzoq hududlarni boshqarishdagi qiyinchiliklar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi hamda mahalliy aholining mustaqillikka intilishi sababli Salavkiylar hukmronligi mustahkam bo'la olmadi. Shu jarayonda Yunon-Baqtriya davlati kabi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Shunday qilib, Salavkiylar davri O'rta Osiyo tarixida ellinistik madaniyatning kirib kelishi va mahalliy siyosiy mustaqil davlatlarning shakllanishiga zamin yaratgan muhim bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.В. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. — Т.: Akademnashr, 2021. — 552 б.
2. Asqarov A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-jild. — Т.: Ma'naviyat, 2023. — 456 б.
3. Ешов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. — Т.: 2012. — 456 б.
4. Самаров Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). — Т.: Маънавият, 2023. — 458 б.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. — Т.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. — 512 б.
6. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд — Т.: 2014. — 489 б.